

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim  
vazirligi**

**Boyuvut ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji**

**"Maxsus fanlar" kafedrası**

**Kurs ishi mavzusi:**

**Mehnat unumdorligi o'sishining asosiy omillari va  
mehnat samaradorligini oshirish yo'nalishlari**

**Bajardi: II bosqich 4-201 guruh talabasi Aliyeva R**

**Kurs ishi rahbari: Yo'ldoshev SH.T**

**Kurs ishi rahbari xulosasi:**

---

**Kurs ishi himoya qilingan sana:**

**«    »                      2015 yil.**

**Kurs ishi bahosi: \_\_\_\_\_**

**Reyting daftarchasining tartib  
raqami: \_\_\_\_\_**

## **MUNDARIJA**

|                    |          |
|--------------------|----------|
| <b>Kirish.....</b> | <b>3</b> |
|--------------------|----------|

|                                                             |          |
|-------------------------------------------------------------|----------|
| <b>I bob. MEHNAT UNUMDORLIGI: OMILLAR VA ZAHIRALAR.....</b> | <b>6</b> |
|-------------------------------------------------------------|----------|

|                                                                                                        |          |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|
| <b>1.1. «Mehnat unumdorligi» haqida tushuncha va uni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....</b> | <b>6</b> |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|

|                                                         |          |
|---------------------------------------------------------|----------|
| <b>1.2. Mehnat unumdorligini aniqlash usullari.....</b> | <b>9</b> |
|---------------------------------------------------------|----------|

|                                                                                  |           |
|----------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>1.3. Mehnat unumdorligi o'zgarishining omillari va shart-sharoitlari.....</b> | <b>15</b> |
|----------------------------------------------------------------------------------|-----------|

|                                                                                        |           |
|----------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>1.4. Mehnat unumdorligini oshirishning zahiralari: mohiyati va sinflashuvi.....</b> | <b>20</b> |
|----------------------------------------------------------------------------------------|-----------|

|                                                                                 |           |
|---------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>II bob. MEHNAT POTENTIALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI STATISTIKASI.....</b> | <b>24</b> |
|---------------------------------------------------------------------------------|-----------|

|                                                                                |           |
|--------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>2.1. Mehnat unumdorligini statistik o'rganishning nazariy asoslari.....</b> | <b>24</b> |
|--------------------------------------------------------------------------------|-----------|

|                                                                                |           |
|--------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>2.2. O'zbekistonda Unumdorlikning statistik ko'rsatkichlari tizimi.....</b> | <b>26</b> |
|--------------------------------------------------------------------------------|-----------|

|                                                |           |
|------------------------------------------------|-----------|
| <b>2.3. Mehnat unumdorligi dinamikasi.....</b> | <b>35</b> |
|------------------------------------------------|-----------|

|                                 |           |
|---------------------------------|-----------|
| <b>Xulosa va takliflar.....</b> | <b>42</b> |
|---------------------------------|-----------|

|                                                |           |
|------------------------------------------------|-----------|
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b> | <b>45</b> |
|------------------------------------------------|-----------|

## KIRISH

### **Mavzuning dolzarbligi:**

Jamiyatning rivojlanishi va uning barcha a'zolari farovonligi darajasi mehnat unumdorligi darajasi va uning o'sishiga bog'liqdir. Bundan tashqari, mehnat unumdorligi darajasi ishlab chiqarish usulini ham, hatto ijtimoiy - siyosiy tuzumning o'zini ham belgilab beradi.

Mehnat unumdorligi darajasi ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi. «Iqtisodiyot» fani mehnat unumdorligi muammolarini o'rganishni XIX asr oxirida boshlagan. Mehnat unumdorligini hisoblash bir ishlab chiqarish ishchisiga nisbatan natural ifodada o'rtacha mahsulot ishlab chiqarish tarzida amalga oshirila boshladi. Bu ko'rsatkichlar sanoatning alohida tarkibi jihatidan bir xil (galogen) tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotning eng muhim turlari bo'yicha aniqlandi. So'ngra iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mahsulot ko'rsatkichlari hamda mehnat sarflari hisob-kitobining rivojlanishi mehnat unumdorligini faqat natura ifodasida emas, balki pul ifodasida va faqat sanoatda emas, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida, xizmat ko'rsatish sohasini ham qo'shgan holda hisoblab chiqish imkonini berdi.

Hozirgi kunda iqtisodchilarning aksariyat ko'pchiligi, unumdorlik ishlab chiqarish va jonli mehnat sarflari natijalarining nisbatini, iqtisodiy samaradorlik esa ishlab chiqarish natijalarining jonli va moddiylashgan mehnat sarflariga munosabatini ifodalaydi, deb hisoblaydi. Jonli mehnat sarflari xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni yoki ishlangan kishi/kunlari, kishi/soatlari soni ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi.

O'tgan asrning 50-yillar oxirigacha sotsialistik davlat statistikasida mehnat unumdorligini hisoblashda ishchilar mehnat sarfigina hisobga olingan. 60-yillardan boshlab, ishlab chiqarish xodimlarining barcha toifalari (sanoatda-sanoatning ishlab chiqarish xodimlari; qishloq xo'jaligida chorvachilik va dehqonchilikda

band bo'lgan xodimlar; qurilishda qurilish-montaj ishlarida, yordamchi ishlab chiqarishda band bo'lganlar va ularning mehnat sarflari e'tiborga olinib boshladi.

### **Mavzuning maqsadi va vazifasi:**

Mehnat samaradorligi mehnat unumdorligidan farqli o'laroq faqat mehnatning miqdor ko'rsatkichlarini emas, shu bilan birga sifat natijalarini ham ifodalaydi. Mehnat samaradorligi ko'rsatkichining yana bir muhim ustunligi unda mehnat resurslarini tejashning aks etishidir.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi mehnat unumdorligi darajasini taqqoslash, shuningdek, uning dinamikasini o'rganish ishlari boshlanib ketdi. Dastlabki bosqichlarda unumdorlik mehnat unumdorligi sifatida o'rganildi, keyinchalik mehnat unumdorligini ishlab chiqarishning boshqa omillari unumdorligiga o'xshash xususiy unumdorlik sifatida talqin qiladigan global unumdorlik kontseptsiyasi umum qabul qilingan kontseptsiyaga aylandi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda milliy hisobchilik tizimining paydo bo'lishi va rivojlanishi unumdorlikni o'rganish sohasidagi ishlarga yangi turtki bo'ldi, chunki bu tizim ma'lumotlari mehnat unumdorligini tarmoq va butun iqtisodiyot darajasida tadqiq qilish imkonini beradi, shuningdek, xalqaro taqqoslashlar uchun asos yaratadi.

Ma'lumki, statistikada mehnat unumdorligi deganda faqat jonli aniq mehnatning unumdorligi tushuniladi. Statistikada unumdorlikni faqat jonli emas, balki moddiylashgan mehnat sarfini ham hisobga olib o'rganadigan qator ishlar bor. Birinchi bunday yondashuvni S.G.Strumilin o'zining 1935 yilda nashr etilgan "SSSR qora metallurgiyasi" asarida asoslab bergan.

**2011-yil yakunlaridagi Prezidentimizning Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012 — 2016 yillarda hisob-kitoblar bo'yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo'lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab**

**chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.**

**Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash masalasi barcha korxonalarda ham hal etilgan, deb bo'lmaydi. Bu kamchilik, ayniqsa, biz uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan engil sanoat, farmatsevtika va qurilish materiallari sanoati kabi iste'mol tovarlari ishlab chiqariladigan tarmoqlarga tegishlidir.**

**Mamlakatimizda yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish borasida ham ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar mavjud. Biz ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish uchun katta mablag' sarflaymiz, ko'p miqdordagi xorijiy investitsiyalarni jalb etamiz.**

**Lekin qator tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan, asosiy fondlardan to'liq foydalanishda, mehnat samaradorligini oshirishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar mahsulotlar tannarxining asossiz ravishda o'sib ketishiga olib kelmoqda.**

**Bunday vaziyatlarni tanqidiy baholab, Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda quyidagi masalalarni hal etishi zarur:**

**Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish bo'yicha 2012-2016 yillarga mo'ljallangan dastur loyihasini tasdiqlash uchun kiritishi, bunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida bu sohaning ulushi 54-56 foizga etkazilishini nazarda tutish darkor.**

### **Mavzuning amaliy ahamiyati:**

**Har qanday xodim yoki ularning guruhi uchun natija samaradorligi, ya'ni vaqt birligi – soat, kun, yil mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot, ko'rsatilgan xizmat miqdori muhim ahamiyatga ega. Bu natija qanchalik yuqori bo'lsa, uning birligiga sarflangan xarajat, shu jumladan, xona, bino uchun ijara haqi elektr**

---

19 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga va 2012 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ma'ruza qildi

quvvatidan foydalanish haqi va shu kabilar shunchalik kamroq bo'ladi. Binobarin, mehnat unumdorligi yuqori, mahsulot hajmi ko'proq bo'lsa, uning xarajatlari kamroq bo'ladi. Mehnat samaradorligi mahsuldorligi mehnat ko'rsatkichi bilan o'lchanadi.

Har qanday mahsulot, buyum, xizmatda jonli va buyumlashgan mehnat jamlangan bo'ladi. Bunday jami mehnat tufayli moddiy boyliklar yaratiladi.

Jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanib borgan sari jonli mehnat moddiylashgan mehnatning tobora ko'proq massasini qamrab oladi. Natijada jami mehnatda moddiylashgan mehnatning ulushi ko'payib borgan sari jonli mehnatning ulushi kamayib boradi. Bu mehnat unumdorligi oshganligining asosiy belgisidir. Ishlab chiqarishning takomillashib borishi va fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi oshishining asosiy shartlaridir. Yangi texnologik jarayonlar, materiallar va avtomatlashtirish vositalarining joriy etilishi mehnatni mexanizatsiyalash darajasining ortishiga olib keladi.

## **I BOB. MEHNAT UNUMDORLIGI: OMILLAR VA ZAHIRALAR**

### **1.1. «Mehnat unumdorligi» haqida tushuncha va uni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati**

**Mehnat faoliyatining maqsadi** biror natijaga erishish, masalan, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishdan iboratdir.

**Mehnat unumdorligi** - xodimlar mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining mehnat xarajatlariga nisbatan, ya'ni mehnat xarajatlari birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot bilan belgilanadi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi mehnat samaradorligi va natijadorligining barcha jihatlarini aks ettirmaydi, masalan, u mehnat sifatini hisobga olmaydi, bundan tashqari, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish zarurligini ifodalamaydi. «Mehnat unumdorligi» tushunchasiga o'z ahamiyati jihatidan yaqin, lekin mazmunan yanada kengroq bo'lgan tushuncha «mehnat samaradorligi» tushunchasidir. *Mehnat samaradorligi* eng kam mehnat xarajatlari bilan yuqori mehnat natijadorligiga erishish darajasini ifodalaydi.

Mehnat unumdorligi va intensivligi mahsulot qiymati o'lchamiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Mehnat unumdorligi ortishi ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorini oshiradi va shunga muvofiq bita mahsulotning qiymatini pasaytiradi, lekin ularning umumiy yangi yaratilgan qiymatini o'zgartirmaydi, mehnat intensivligini ortishi esa ishlab chiqariladigan mahsulotlar va umumiy umumiy yangi yaratilgan qiymatni oshiradi, lekin mahsulot birligining qiymatini o'zgartirmaydi.

Mehnat unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa, ish sifati zarur darajada bo'lgani holda mehnat xarajatlari qanchalik kam bo'lsa, mehnat samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Tadbirkor korxona egasi uchun vaqt birligi ichida qanday ishlab chiqarish darajasiga erishilgani emas, shu bilan birga u qanday

mehnat xarajatlari bilan ta'min etilgani ham muhimdir. Mehnat xarajatlar xodimlar soni va mehnatga to'langan haq xarajatlari bilan o'lchanadi. Unisi ham, bunisi ham ish vaqti bilan o'lchanishi mumkin. Shuning uchun ham mehnat samaradorligini tahlil qilganda vaqt birligi ichida sarflangan mehnat xarajatlari ham, shu bilan birga uning tuzilishi hisobga olingan holda ham qarab chiqiladi.

Mehnat unumdorligini hisoblashda quyidagilarni ta'minlash imkonini beradigan uslubiyot ideal hisoblanishi mumkin:

- korxona ishning ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqligi;
- xodimga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish;
- mehnat unumdorligining umumiy va xususiy ko'rsatkichlari bir o'lchov bilan o'lchanishi mumkinligi;
- mehnat miqdori bilan sifati o'rtasidagi bog'liqlik.

Bu ko'rsatkichni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$M_o = \frac{C_m}{C_y} \cdot 100\%$$

Bu erda  $M_d$  - mehnatning mexanizatsiyalash darajasi, %;

$S_m$  - mexanizatsiyalashgan mehnat xodimlari soni;

$S_u$  - xodimlarning umumiy o'rtacha ro'yxatdagi soni .

Mexanizatsiyalashgan mehnat xodimlari jumlasiga o'z ishini mashinalar va mexanizmlar yordamida bajaradigan kishilar kiritiladi.

Mehnatni mexanizatsiyalash (avtomatlashtirish) darajasining ortishi moddiylashgan mehnat ulushining oshganligi va jonli mehnat sarflashni ko'paytirmasdan turib mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlaridan dalolat beradi.

Mehnat unumdorligining asosi bo'lgan mehnatning unumdorlik kuchi mehnat unumdorligining aynan o'zi emas: haqiqiy mehnat unumdorligi yana ikkita muhim omilga - jonli mehnatning eng muhim ko'rsatkichi bo'lgan mehnat intensivligiga (jadalligiga) va ish vaqtining nominal fondidan foydalanishga ham bog'liq.

Mehnat jadalligi (intensivligi) – bu, jonli mehnatning jiddiyligi yoki murakkabligi darajasi bo'lib, ish vaqti birligi ichida inson asab va muskul quvvatining sarflanishi bilan o'lchanadi. Bunda inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan jadallik ijtimoiy normal jadallik hisoblanadi, sarflangan quvvat ovqatlanishi, dam olish va hissiy engillanish hisobiga to'liq tiklanadi.

Hisobga ko'ra, mehnatning normal jadalligi darajasi tekis yuzada soatiga 4,8 km tezlik bilan ketayotgan kishining kuch-quvvat sarflashiga tengdir. Nisbatan normal muayyan mehnat jadalligini oshirish mehnatga haq to'lashda tegishli darajada hisobga olishni talab qiladi.

Mehnat unumdorligi mehnat jadalligi bilan bir qatorda ish vaqti fondidan foydalanish darajasi bilan ham bog'liqdir.

Ish vaqtidan foydalanish ishlangan vaqtning, shu jumladan, ichki smena dam olishga ajratilgan tartibga solingan tanaffus vaqtining mazkur ishlar turi uchun belgilangan nominal vaqt fondiga (ish kunining ish haftasi, oyi va yilning soat hisobidagi miqdoriga) nisbati sifatida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarning indeks aloqasi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$I_{\text{my}} = I_{\text{myk}} I_{\text{mu}} I_{\text{uof}}$$

Bu erda  $I_{\text{my}} = I_{\text{myk}} I_{\text{mu}} I_{\text{uof}}$  - mehnat unumdorligiga muvofiq ravishda mehnat unumdorligi kuchi, mehnat jadalligi va ish vaqtidan foydalanish indeksleri.

Agar texnika, texnologiya darajasi smena mobaynida 200 birlik mahsulot ishlab chiqarish imkonini bergan bo'lib, mehnat jadalligi va ish vaqtidan foydalanish indeksleri tegishli ravishda 0,95 va 0,9 dan iborat bo'lsa, u holda haqiqiy mehnat unumdorligi 200 emas, 171 birlikni (200\*0,9) tashkil etadi. Shunga ko'ra ishlab chiqarish natijasini uning barcha o'lchash mumkin bo'lgan omillari majmuiga nisbatan yoki alohida guruh omillarga nisbatan hisoblash mumkin.

Shunday omillar jumlasiga quyidagilar kiradi: 1)sarflangan ishlab chiqarish omillarning miqdori va sifati (sarf samarasi); 2)sarflangan omillar miqdorlarining foydalanilishi darajasi (foydalanish samarasi); 3)ishlab chiqarish omillari

kombinatsiyalarining miqdori (substitutsiya samarasi); 4) texnika taraqqiyoti (texnika samarasi); 5) ishlab chiqarish jarayoni tashkil qilinishi (daraja samarasi); 6) alohida jarayonlar sektorlarning yoki xarajatlar yohud mahsulotning umumiy miqdorida ishtirok etishi (tarkib samarasi); 7) alohida sektorlar va jarayonlar orasidagi o'zaro aloqalar darajasi va tarkibi (o'zaro aloqadorlik samarasi).

## 1.2. Mehnat unumdorligini aniqlash usullari

Mehnat unumdorligini o'lchash muammosi mazkur iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini aniqlashdan birmuncha murakkabroq. Amalda mehnat unumdorligining o'sishi va mahsulot ishlab chiqarishni o'lchashning turli usullaridan foydalaniladi. U yoki bu usulning qo'llanishi, birinchidan, mehnat unumdorligini o'lchash darajasiga, ikkinchidan esa, hisoblashni amalga oshiradigan iqtisodiy xizmat oldida qanday vazifa turganligi bilan bog'liqdir.

Mehnat unumdorligini o'lchash darajasi bo'yicha bir xildagi mahsulotni ishlab chiqaradigan alohida ish o'rinlari (brigada, uchastkalar)ni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu o'rinda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini va ishlab chiqarish normalarini (dona, tonna, kub yoki kvadrat metr va hokazo) aniqlashning **natural (tabiiy) usulini** qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu usul oddiy, qulay va ishonchli bo'lsada, u faqat bir xil mahsulot ishlab chiqariladigan ish joylarida qo'llaniladi, shuning uchun ham amalda undan kamroq foydalaniladi. Korxonaning birigada va uchastkalarida butunlay bir xil mahsulot ishlab chiqarilsa, bunday holatdagina natural usul qo'llanilishi mumkin:

**Misol.** Agar tsexning 10 ishchisi bir hafta mobaynida 800 ta detal ishlab chiqargan bo'lsa, har bir ishchining ishlab chiqargan detali quyidagicha bo'ladi:

bir haftada -  $800 : 10 = 80$  (detal);

bir kunda -  $80 : 5 = 16$  (detal);

Natural usulning bir ko'rinishi shartli-natural usul bo'lib, bunda ish hajmi bir xil mahsulotning shartli birligida hisobga olinadi. Masalan, turli

hajmdagi vagonlarga, turli hajmdagi konserva bankalari shartli bankalarga, turli poyabzallar shartli juftga aylantiriladi. Shartli o'lchovlarga aylantirish, odatda, o'tkazish birliklari koeffitsientlari yordamida amalga oshiriladi.

Shartli natural usul qo'llanish uchun qulaydir, chunki ko'pgina xilma-xil tovarlarning, xizmatlarning aylantirish koeffitsientlari yordamida ishlab chiqarishni qiyoslanadigan turga keltirish mumkin. Masalan, un, non va makaron mahsulotlari sotish xarajatlarini non-bulka mahsulotlarini shartli kilogrammiga aylantirish orqali ifodalash mumkin.

Mehnat unumdorligini o'lchashning yana bir keng tarqalgan usuli **mehnat usulidir**.

Mehnat unumdorligini mehnat usuli bilan o'lchashda mahsulot birligini ishlab chiqarish yoki tovar birligini sotishga doir normativ vaqtdan foydalaniladi:

$$y_{\text{м}} = \frac{t(\text{вакм}) * V(\text{максулот})}{t(\text{хакуката})}$$

Bu erda  $U_{\text{м}}$  - mehnat usuli bilan o'lchangan mehnat unumdorligi.

Mehnat usulining afzal tomoni uni barcha ish turlari va xizmatlarga tatbiq etish mumkinligidir. Biroq bu usuldan keng foydalanishda har bir ish turi uchun vaqt normativlari zarurdir, ular hamisha ham mavjud bo'lavermaydi. Bu usuldan ishbay ishlovchi xodimlar mehnat unumdorligini hisoblash uchun foydalanib bo'lmaydi, chunki ular uchun vaqt normalari tatbiq etilmaydi.

Unumdorlik o'lchashning **mehnat usuli bir qator kamchiliklarga ham** ega (normalar etarli darajada asoslab berilmagan bir xil darajada jiddiy emas, ular tez-tez qayta ko'rib chiqiladi va hokazo), bu esa hatto ayrim ish joyidagi va brigadalardagi mehnat unumdorligining darajasi va o'sishiga holisona baho berilishiga imkon tug'dirmaydi.

Mehnat unumdorligiga ishlarning sermehnatligi ta'sir ko'rsatadi. Sermehnatlik – bu, jonli mehnat sarflarini aks ettiruvchi ko'rsatkich bo'lib, u ish vaqtida, mahsulot ishlab chiqarish (xizmatlar)da ifodalangan. Sermehnatlik,

odatda, norma-soatlarda (haqiqiy soatlarda) o'lchanadi, bu vaqt ish birligini bajarishga sarflangan bo'ladi. Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga qarama-qarshi bo'lib, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$C = \frac{I_{\text{v}}}{I_{\text{m}}},$$

Bu erda S – sermehnatlik;

$I_{\text{v}}$  – ish vaqti;

$I_{\text{m}}$  – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

Korxonalar va ularning yirik bo'linmalari darajasida, xuddi iqtisodiyot tarmoqlarida bo'lgani kabi, ishlab chiqarish va mehnat unumdorligi hajmlarini o'lchash uchun asosan **qiymat usuli** tatbiq etiladi. Qiymat usuli universal usul bo'lib, u mahsulotning barcha turlari va hajmlari, ishlar va xizmatlar yagona pul ko'rsatkichlari bo'lgan so'mda ifodalanadi, u hajm ko'rsatkichlarini tegishli ulgurji narxlarga ko'paytirish bilan aniqlanadi.

Masalan, agar besh kishidan iborat ishchilar brigadasi bir smenada 100 ming so'mlik ish hajmini bajargan bo'lsa, u holda har bir ishchining smenadagi mehnat unumdorligi (ishlab chiqargan mahsuloti) quyidagicha bo'ladi: 120:5q24 (ming so'm), tegishli ravishda bir soatlik ish mobaynida 20:8q2,5 (ming so'm) bo'ladi.

Mehnat unumdorligini o'lchashning qiyosat usuli turli kasb va malakaga ega bo'lgan xodimlarning mehnat unumdorligi, masalan, qandolatchi va novvoyning, chilangar va haydovchining mehnat unumdorligini taqqoslash imkonini beradi. Biroq bu usul ko'rinishdan universal usul bo'lishiga qaramay, bir qancha kamchiliklarga ham ega. Xususan unga narx omili, ya'ni bozor kon'yukturasi va inflyatsiya ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat unumdorligini o'lchash usullarining har uchasi ham o'z afzalliklari bilan bir qatorda turli kamchiliklarga ega. Ularni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

| Mehnat unumdorligini o'lchash usullari |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|----------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Natural usul                           | <p><i>Bir xildagi, turdosh mahsulotlari ishlab chiqishda ishlab chiqarish jarayoning unumdorligini ifodalashda qo'llaniladi</i></p> <p><b>Afzalligi</b> - qulay, tushunarli, mahsulot ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlarini aks ettiradi.</p> <p><b>Kamchiligi</b> - keng miqyosda qo'llash mumkin emas, chunki iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari, aksariyat korxonalar faqat bir xil mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashmagan</p>                                                                                |
| Qiymat usul                            | <p><i>Turdosh bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarish samaradorligini ifodalash ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, qiymat (pul) birligida o'lchanadi.</i></p> <p><b>Afzalligi</b> - mehnat unumdorligini tarmoqlar bo'yicha, turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda o'lchash imkonini beradi.</p> <p><b>Kamchiligi</b> - inflyatsiya jarayonlarini aniq hisobga olinmasa, olingan ko'rsatkich taxminiy natijaga ega bo'ladi; mahsulot ishlab chiqarishdagi ichki, tarkibiy sifat o'zgarishlari aniq aks etmaydi.</p>  |
| Mehnat usuli                           | <p><i>(norma-soatlarida ifodalanuvchi) ishlab chiqarilgan mahsulotning unga ketgan haqiqiy vaqt sarfiga nisbatan iborat bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarfini unumdorlik nuqtai nazaridan baholashi imkonini bildiradi.</i></p> <p><b>Afzalligi</b> – iqtisodiyotning barcha sohalarida ishlatilishi mumkin, taqqoslashga juda o'ng'ay.</p> <p><b>Kamchiligi</b> - bu usulda mehnat unumdorligini o'lchash juda qiyin va ko'p vaqt, xarajatni talab qiluvchi o'lchash va hisob ishlarini talab qiladi.</p> |

Ishlab chiqarish hajmlari va mehnat unumdorligini o'lchashning qiymat usuli birmuncha murakkab ishlab chiqarish hajmlarini hisoblashda eng maqbul usulni muayyan shart-sharoitlardan kelib chiqib tanlash mumkin. Ishlab chiqarish

hajmlarini o'lchashning eng ko'p qo'llanadigan usuli yalpi, tovar va sotilgan mahsulotlar ko'rsatkichlaridir. Bu xil ulgurji narxlarda «zavod usuli» bo'yicha hisoblangan yalpi mahsulot tovar mahsulotdan tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarini o'lchaysh bilan, sotilgan mahsulot tovar mahsulotdan sotish uchun mo'ljallangan, lekin sotilmagan tovar qoldiqlari summasi bilan farq qiladi. Shunday qilib, mahsulot ishlab chiqarish normasi yalpi mahsulot bo'yicha aniqlanganda eng aniq natijalar kelib chiqqanday tuyuladi. Biroq, bozor iqtisodiyoti sharoitida unumdorlikni sotilgan mahsulot hajmi bo'yicha hisoblash ancha muhimroqdir, chunki tugallanmagan ishlab chiqarishning ko'payishi va sotilmagan mahsulot qoldiqlarining to'planib qolishi ijobiy iqtisodiy ahamiyatga ega emas. Yalpi tovar va sotilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini va normalarini o'lchashning kamchiligi shundan iboratki, ulgurji narxlar barcha barcha moddiy xarajatlarning qiymatini o'z ichiga oladi. **Vatanimiz tajribasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajm ko'rsatkichlari faqat jonli mehnat bilan bog'liq bo'lganligi sababli foydalanayotgan materiallar sig'imining va qiymat ko'rsatkichlarining o'zgarishiga duchor bo'lmoqda. Moddiy xarajatlarning har qanday ko'payishi (xoh u ancha qimmatbaho material bo'lsin) yoki boshqa korxonalar bilan kooperatsiya bo'yicha mahsulot etkazib berish va sotish bo'lsin, baribir mehnat unumdorligining ortib borish tasavvurini beradi. Material sig'imining kamayishi esa – mazkur ko'rsatkichning pasayishi tasavvurini o'yg'otadi.**

Mehnat unumdorligini o'lchashda material sig'imining o'zgarishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning hajm ko'rsatkichiga va mahsulot ishlab chiqarish normasiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga barham berish uchun qo'shimcha o'lchov usullaridan foydalaniladi: shartli sof, normativ sof mahsulot bo'yicha va ishlov berishdagi normativ qiymat usullari tatbiq etiladi. Bu usullarni qo'llash material sig'imio'zgarishlarining salbiy ta'sirining to'liq yoki qisman barham toptiradi. Shunga qaramay ularning har biri o'z kamchiligiga ega bo'lib, haqiqatla ulardan birortasi ham bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bermayodi.

Mehnat unumdorligini qiymat usulida aniqlash uchun foydalaniladigan shartli sof mahsulot ko'rsatkichida yalpi mahsulot qiymatidan xomashyo, butlovchi ashyolar, energiya, yoqilg'i va hokazolarga qilingan bevosita xarajatlarni chegirib tashlanadi. Shu bilan birga bu ko'rsatkichdan ish haqi, asosiy fondlarning eskirishi va foyda chegirilmaydi. Bu erda moddiy xarajatlar o'zgarishi barham toptiriladi, lekin foydanining salmog'i va amortizatsiyaning salmog'i ortadi. Ularning o'zgarishi esa mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini birmuncha soxtalashtirishi mumkin.

Mehnat unumdorligi aniqlashda foydalaniladigan sof mahsulot ko'rsatkichida yalpi mahsulot qiymatidan barcha moddiy xarajatlarni, shu jumladan amortizatsiya ajratmalarini ham chiqarib tashlash yo'li bilan hisoblab chiqiladi. Xarajatlarni va mehnat unumdorligini hisoblashda avvalgi mehnat xarajatlarning soxtalashtiruvchi ta'siri to'la-to'kis barham toptiriladi, lekin foydaning salmog'i jiddiy ravishda ortadi. Shuning uchun turli mahsulot xillarining turlicha foyda berishi sharoitida aynan foyda sof mahsulot va mehnat unumdorligini ko'rsatkichlarini soxtalashtirishda asosiy rol o'ynaydi. **Shuni aytish kifoyaki, foydaning turlichaligi bizning mamlakat iqtisodiyot uchun xos bo'lib, o' sho'rolar hukmronligi davrida markazlashgan rejalashtirish doirasida rivojlanib kelgan edi. Unda foyda va qiymatning o'rtacha normasi bo'yicha mavjud bo'lgan tenglamaga amal qilmas edi.** Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda olingan foyda darajasi muhim farqlar yo'qligi tufayli sof mahsulot usulini mahsulot hajmlari va mehnat unumdorligini aniqlash uchun batamom maqbul deb hisoblaydilar.

Lekin hatto bozor iqtisodiyoti qaror topgan mamlakatlarda ham sof mahsulot ko'rsatkichi tovar yoki yalpi mahsulot ko'rsatkichlariga nisbatan narxlarning tebranib turishiga ancha ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat unumdorligini aniqlashda foydalaniladigan normativ sof mahsulot ko'rsatkichi sof mahsulot ko'rsatkichidan farqli o'laroq nomativ ish haqini va unga qo'shib yozilgan haqi, shuningdek o'rtacha tarmoq foydasini o'z ichiga oladi. Shuning hisobiga mahsulot har xil turlarning turlicha foyda keltirishga barham

beriladi. Ushbu usulni qo'llanish tajribasida muayyan qiyinchiliklar va kamchiliklar vujudga keladi. **Birinchi**, mahsulotlarning barcha turlariga ulgurji narxlar tizimiga parallel ravishda ish haqining yaxlit normativlari tizimini yaratish zarurati paydo bo'ladi. Ommaviy ishlab chiqarishda bu narsa qiyinchilik tug'dirmasa ham, donalik va kichik seriyali ishlab chiqarish va ulardagi mahsulot nomenklaturasining tez-tez o'zgarib turishi sharoitida jiddiy qiyinchiliklar paydo bo'ladi. **Ikkinchidan**, normativ sof mahsulot asosini tashkil etuvchi ish haqi normativlarini ishlab chiqishda mazkur normativlarni oshirishga moyillik paydo bo'ldi. Bu esa mehnat sarflashning nisbatan ko'payishiga, demak, mehnat unumdorliginni oshirish sur'atlarining sekinlashuviga olib keldi. **Uchinchidan**, unumdorlikning normativ sof mahsulot ko'rsatkichi korxonalar ishining pirovardmoliyaviy natijalar bilan zaif bog'langan: mahsulot ishlab chiqarish normasi va mehnat unumdorligi hajmlari ko'rsatkichiga ega bo'lish mumkin. Lekin moddiy resurslarning ortiqcha sarflanishi tufayli foydaga ega bo'lmasligi mumkin. Bitta ana shu sababning o'ziyoq normativ sof mahsulot ko'rsatkichidan, asosiy usul sifatida foydalanishni maqsadga muvofiq qilib qo'yadi. Unda faqat tahlil qilish maqsadlarida keng foydalanish mumkin bo'ladi.

Mehnat unumdorligini o'lchashning qiymat usulida foydalanadigan ishlov berining normativ qiymati ko'rsatkichi engil sanoatda ishlab chiqarish hajmlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ishlov berish qiymati normativlariga ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqi va ularga yoziladigan qo'shimcha haqlar, tsex xarajatlar normativi; umumzavod xarajatlari normativi kiritiladi.

### **1.3. Mehnat unumdorligi o'zgarishining omillari va shart-sharoitlari**

Mehnat unumdorligi - rivojlanib boruvchi ko'rsatkichdir. U ko'pgina sabablar va omillar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi. Ulardan bir xillari mehnat unumdorligi oshishiga yordam bersa, boshqalari uni pasaytirishga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, mehnat unumdorligi darajasi va o'sishiga mehnat jarayoni kechadigan sharoit ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shart-sharoitlar

qulay bo'lsa, u yoki bu omilning ta'sir etishini kuchaytiradi yoki noqulay bo'lsa, bu ta'sirni zaiflashtiradi. Masalan, tabiiy-iqlim sharoitlari qishloq xo'jaligidagi mehnat natijalariga va uning unumdorligiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish vositalarining mulkchilik shakllari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlar, shuningdek, ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan shart-sharoitlar boshqa teng sharoitda ham mehnat unumdorligiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Korxonada mehnat unumdorligining oshishi quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

- Vaqt birligi mobaynida yaratiladigan mahsulotning sifati o'zgarmagan holda hajmi oshishi;
- Vaqt birligi mobaynida yaratiladigan mahsulotning hajmi o'zgarmagan holda sifati oshishi;
- Ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga mehnat sarfining qisqarishi;
- Mahsulot tannarhida mehnat sarflari ulushi kamayishi;
- Tovarlar ishlab chiqarilishi va aylanishi vaqti qisqarishi;

Foyda massami va me'yori oshishi tarzida namoyon bo'ladi.

Mehnat unumdorligi darajasi va uning dinamikasiga ko'pgina omillar ta'sir qiladi. **Omillar deb mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan harakatlantiruvchi kuchlar yoki sabablarga aytiladi.** Ulardan ayrimlari mehnat unumdorligining ortishiga yordam bersa, boshqalari unumdorlikning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Omillarning birinchi guruhiga mehnat vositalarining samarasini ortishi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish va mehnatkashlar ijtimoiy guruhlari sharoitining yaxshilanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha tadbirlar kiradi; ikkinchi guruh - tabiiy sharoitlarning noqulay ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi kamchiliklar, ijtimoiy sharoitdagi salbiy elementlarning ta'sir ko'rsatishi kiradi.

Ayrim korxona yoki tashkilot darajasidagi omillarni qarab chiqqanda, ularning hammasini ichki va tashqi omillarga bo'lish mumkin.

**Ichki omillarga** korxonaning texnika bilan qurollanish darajasini, qo'llanilayotgan texnologiya samaradorligi, mehnat va ishlab chiqarishning

energiya bilan ta'minlanishi darajasi, tatbiq etilayotgan rag'batlantirish tizimlarining ta'sirchanligi, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, kadrlar tarkibining yaxshilanishi kabi korxonani rahbarlariga bog'liq bo'lgan barcha narsalar kiradi. **Tashqi omillarga** quyidagilarni kiritish mumkin: davlat buyurtmalari va bozordagi talab hamda takliflarning o'zgarishi munosabati bilan mahsulot xillari va ularning sermehnatlik darajasining o'zgarishi; jamiyat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlari; mehnatni kooperatsiyalashuv darajasi, moddiy texnika ta'minoti tabiiy shart-sharoitlar va hokazolar.

Barcha omillarni o'z ichki mazmuni va mohiyatiga ko'ra, uchta guruhga bo'lish mumkin: moddiy-texnika, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy. Mehnat unumdorligini oshirishning moddiy asosi fan, texnika va texnologiyani rivojlantirish, ularning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishdir. Shuning uchun ham **moddiy-texnika omillari** guruhini, odatda, etakchi va qolgan barcha omillarni belgilovchi guruh deb qaraladi.

Mehnat unumdorligini oshirishning **moddiy-texnika omillariga** fan-texnika taraqqiyotini uzluksiz rivojlantirish asosida mehnatning texnika va energiya bilan ta'minlanishini oshirish kiradi. Ishlab chiqarishda fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir: ishlab chiqarishning avtomatlashtirishga o'tish munosabati bilan uni mexanizatsiyalash; mehnatning energiya bilan ta'minlanish darajasini oshirish asosida mashina va asbob-uskunalar quvvatining ortishi; ishlab chiqarishni elektrlashtirish; sanoat va qishloq xo'jaligining bir qancha tarmoqlarida ishlab chiqarishni kimyolashtirish; butunlay yangi texnologiyalarning yaratilishi (ular ishlab chiqarish intensivligini oshirishni ta'minlaydi va jonli mehnat sarfini keskin qisqartiradi); ishlab chiqarishga material sarflanishining pasayishi va moddiy resurslarning tejalishi; mashinalar va asbob-uskunalar ixtisoslashuvining chuqurlashuvi va shu kabilar. Energiyaning yangi qudratli manbalari - atom, ichki yadro, geoterial, kosmik va hokazo turlarining o'zlashtirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Moddiy - texnika omillari ta'siri natijasida mehnat unumdorligi ortadi va mahsulotning sermehnatlik darajasi (t) pasayadi. Sermehnatlilik darajasi

ko'rsatkichi bo'yicha mehnat unumdorligining o'sishi quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

---

$$M_y = \frac{M_{cm} \times 100}{100 - M_{cm}} \text{ yoki } M_y = \frac{M_{cm} \times 100}{C_{\sigma M} - M_{cm}}$$

Bu erda  $M_y$  - mehnat unumdorligining oshishi, %;

$M_{cm}$  - mahsulot birligi sermehnatlik darajasining pasayishi, %;

$C_{\sigma M}$  - tadbirni joriy etishdan oldin mahsulot birligini uchun zarur bo'ladigan boshlang'ich sermehnatlik darajasi.

Mehnat unumdorligining o'sishiga doir **tashkiliy omillarda** korxonalar, tarmoqlar va umuman, iqtisodiyot darajasida ishlab chiqarishni tashkil etish kiradi. Xususan, korxonalarni mamlakatimiz hududlari bo'yicha joylashtirish, ham mamlakat ichida, ham chet mamlakatlar bilan transport aloqalarini yo'lga qo'yish; korxonalarni ixtisoslashtirish va ularning keyinchalik kooperatsiyalashuvi; moddiy-texnika, energiya ta'minoti, ta'mirlash xizmati ko'rsatish va hokazolar katta ahamiyatga egadir. Korxonalar ichida ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishiga doir muhim vazifalar quyidagilardir: rejalashtirish sifatini oshirish; ishlab chiqarishni tashkiliy-texnik jihatdan tayyorlashni tashkil etish; yangi texnika va texnologiyani o'z vaqtida joriy qilish; ishlab turgan asbob-uskunalarini zamonaviylashtirish; mashinalar, mexanizmlar, asbob-uskunalar, apparatlarni joriy va kapital ta'mirlashni ta'min etish, shuningdek, korxona ichida moddiy-texnika ta'minotini to'g'ri tashkil etish.

Barcha tashkiliy omillar bir-biri bilan mustahkam bog'langan bo'lib, ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etishning yagona tizimini hosil qiladi. Ulardan to'liq foydalanmaslik, turli tashkiliy kamchiliklarning mavjud bo'lishi asosan ish vaqtidan foydalanishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ish vaqtining bekor sarf bo'lishi mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar oqibati bo'lib,

mehnat unumdorligini pasaytiradi, ish vaqti bekor sarf bo'lishini qisqartirish esa mehnat unumdorligining ortishini ta'minlaydi.

Tashkiliy omillar tizimida kadrlar tarkibining yaxshilanishi - boshqaruv xodimlari sonining nisbiy qisqarishi va sanoat - ishlab chiqarish xodimlari umumiy sonida ishchilar salmog'ining, bular orasida esa asosiy ishchilar salmog'ining ortishi muhim o'rin tutadi. Sanoat - ishlab chiqarish xodimlari umumiy sonida ishchilar salmog'i qanchalik yuqori bo'lsa, bitta xodimga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning** ta'siri shu narsa bilan bog'liqki, fan-texnika taraqqiyotining avj olishi, ishlab chiqarish (texnika, texnologiya) moddiy asosining ta'minlashuvi va xilma-xil, ko'p hollarda esa ancha murakkab tashkiliy tadbirlarning amalga oshirilishi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, balki faqat ijtimoiy ishlab chiqarish ishtirokchilari bo'lgan insonlarning faol mehnat faoliyati natijasidagina sodir bo'ladi. Bu mehnat faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi - muayyan natijani qo'lga kiritishga bo'lgan qiziqishdir. U o'z navbatida ishlab chiqarish ishtirokchilari bo'lgan insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat qatnashchilari muayyan mehnat faoliyati natijasini qo'lga kiritishga intilishi bilan bir qatorda etarli darajadagi mehnat qobiliyatiga, ishbilarmonlik va shijoatkorlik kabi zarur shaxsiy sifatlarga ega bo'lishlari, shuningdek, tadbirkor va hushyor bo'lishlari lozim.

Mehnat unumdorligiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi:

- mehnat natijalaridan moddiy va ma'naviy manfaatdorlik;
- xodimlarning malaka darajasi, ularning kasbiy tayyorgarligi sifati va umumiy madaniy-texnikaviy saviyasi;
- mehnatga munosabat va mehnat intizomi darajasi;
- mehnat jamoalari o'z-o'zini boshqarishining rivojlanishi.

#### 1.4. Mehnat unumdorligini oshirishning zahiralari: mohiyati va sinflashuvi

Mehnat unumdorligini oshirish zahiralari (rezervlari) – texnika va texnologiyani takomillashtirish, ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etishni yaxshilash hisobiga mehnat unumdorligini oshirishning barcha omillaridan yanada to'laroq foydalanish imkoniyatidir. Zahiralar mehnat unumdorligini oshirish omillari bilan chambarchas bog'liqdir. Agar biror omilni imkoniyat sifatida olib qaraydigan bo'lsak, u holda bu omil bilan bog'liq bo'lgan zahiradan foydalanish imkoniyatning voqelikka aylanish jarayoni hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirish zahiralarining bir necha tasniflari mavjud bo'lib, ularning hammasi ikkita katta guruhga bo'linadi: **jonli mehnatdan (ish kuchidan) foydalanishni yaxshilash zahiralari va asosiy va aylanma fondlardan yanada samaraliroq foydalanish zahiralari**. Birinchi guruhga mehnatni tashkil etish, mehnat sharoitlari, ishlovchilarning mehnat qilish qobiliyatini oshirish, kadrlar tarkibi va ularni joy-joyiga qo'yish, uzluksiz ishlash uchun tashkiliy shart-sharoitlar yaratib berish, shuningdek, xodimlarning mehnat natijalaridan moddiy va ma'naviy manfaatdorligini oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalar kiritiladi. **Ikkinchi guruh** asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashinalar, mexanizmlar, apparatlar va shu kabilar)dan yaxshiroq foydalanishi zahiralarini, shuningdek, xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, yoqilg'i, energiya va boshqa aylanma fondlardan yanada tejamli va to'liq foydalanishni o'z ichiga oladi.

Zahiralar foydalanish imkoniyatlari belgilari bo'yicha **zahira\_zahiralariga** va **nobud bo'lish** (bekorga sarflash) **zahiralariga bo'linadi**.

Zahiralar tushunchasiga ishlab chiqarishda ish vaqtining bekor sarf bo'lishi ham kiradi. Bular smena ichida va kun mobaynida bekor turishlar, ishga kechikib kelish va rejada ko'zda tutilmagan ishga kelmay qolishlarning barchasidir; mehnatning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan holda sarflanishi - mehnat qurollari va mehnat ashyolaridan oqilona foydalanmaslik hamda belgilangan

texnologiya jarayonlarining buzilishi oqibatida mehnatning rejadagidan tashqari ortiqcha sarflanishidir.

Zahiralar foydalanish vaqtiga qarab **joriy va istiqbol zahiralariga** bo'linadi. **Joriy zahiralar** texnologiya jarayonlari muhim darajada o'zgartirilmay va qo'shimcha kapital mablag'lar sarflanmay amalga oshiriladi. **Istiqbol zahiralar** ishlab chiqarishni qayta tashkil etishni, ancha mukammal asbob-uskunalar o'rnatilishi, tayyorgarlik ishlariga kapital mablag'lar va ko'proq vaqt sarflashni talab qiladi.

Zahiralar aniqlanish va foydalanish joyiga qarab xalq xo'jalik, tarmoq va ichki ishlab chiqarish zahiralariga bo'linadi. Xalq xo'jalik zahiralariga tabiiy resurslar, ulardan har tomonlama foydalanish va shu kabilar kiradi. Tarmoq zahiralariga shunday zahiralar kiradiki, ulardan foydalanish umuman tarmoqdagi xodimlar mehnat unumdorligini oshiradi (korxonalarning ixtisoslashtirilishi, ishlab chiqarishning bir joyga to'planishi va kombinatsiyalanishi, texnika va texnologiyaning takomillashtirilishi va hokazo). Ichki ishlab chiqarish zahiralar mehnat unumdorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular joriy va istiqbol zahiralaridan tashqari, ikki guruhga bo'linadi: mahsulotning sermehnatlik darajasini pasaytirish zahiralar va jami ish vaqtidan yaxshiroq foydalanish zahiralar.

Ma'lumki, mehnat unumdorligi darajasi ish vaqti birligiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori bilan aniqlanadi. Lekin boshlang'ich hajmlar vaqtda ifodalansa, mehnat unumdorligi ish vaqti fondining mahsulot sermehnatlik darajasiga nisbati sifatida hisoblab chiqariladi:

$$M_u = \frac{\Phi_{ub}}{M_c}.$$

Bu erda:

$M_y$  - Mehnat unumdorligi (boshlang'ishlab chiqarish hajmlar vaqtda ifodalangandagi),

$\Phi_{IB}$  - Ish vaqti fondi,

$M_c$  - Mahsulot sermehnatlik darajasi

Buning ma'nosi shuki, mahsulot ishlab chiqarish me'yori uni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt miqdoriga to'g'ri proporsional va uning sermehnatlik darajasiga teskari proporsionaldir. Agar mehnat unumdorligi ish vaqt fondini ko'paytirish hisobiga ortsa, u holda bu unumdorlikni oshirishning ekstensiv yo'li hisoblanadi; agar unumdorlik sermehnatlik darajasini qisqartirish bilan ta'min etilsa, bu ekstensiv yo'l hisoblanadi. Bunda mahsulot tayyorlashga sarf etiladigan sarf xarajatlarning kamayishi yangi texnika va texnologiya joriy etish, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish hisobiga sodir bo'ladi.

Mavjud zahiralarini aniqlash ishlab chiqarishning ayrim uchastkalarida yoki joriy va oldingi davrlardagi ish turlari bo'yicha mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Tahlil qilishning asosiy usuli joriy davrdagi ko'rsatkichlarni rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan taqqoslashdir. Bunda rejalashtirilgan topshiriqlarning asoslanganligi ham tekshirilishi lozim, chunki ularda rejalashtirilgan davrdagi ishlab chiqarishning barcha xususiyatlari, shart-sharoitlari, zahiralarini to'la hisobga olinmagan bo'lishi mumkin. Shuningdek, yil davomida rejaga kiritiladigan turli aniqliklarni ham hisobga olish zarur. Ular boshqa ko'rsatkichlarga - mehnat unumdorligiga, xodimlar soniga, mehnatga haq to'lash fondiga turli o'zgartirishlar kiritilishiga sabab bo'ladi.

Ishchi kuchi tejalishini hisoblash uchun sermehnatlik darajasini pasaytiruvchi tadbir joriy etilishidan oldingi va keyingi u yoki bu mahsulotni tayyorlash yoki biron - bir ish turini bajarishga sarflangan mehnat xarajatlari taqqoslab ko'riladi.

Sermehnatlik darajasini norma-soatlarda o'lchaganda ish kuchining tejalishi ( $T_k$ ) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$T_k = \frac{T_H}{\Phi_{u.6.} \times K} \times M,$$

Bu erda:  $T_n$  - operatsiyaga sarflangan mehnatni tejash, norma-soat hisobida;

$F_{i.v.}$  - ishchining yillik ish vaqti foizi, soat;

$K$  - mazkur operatsiyada normalarni bajarishning rejadagi koeffitsienti;

*M* - yil oxirigacha amalga oshirilgan operatsiyalar (buyumlar) soni.

Ish vaqtidan yaxshiroq foydalanish hisobiga mehnat unumdorligining o'sish zahirolari avvalo bu vaqtning bekor sarf bo'lishiga barham berish bilan bog'liqdir. Haqiqatda ular sermehnatlik darajasining pasayishi zahiralaridan keskin farq qiladi hamda faqat mehnat va ishlab chiqarish yaxshi tashkil etilmaganda, mehnat intizomi buzilganda, mehnatni muhofaza qilish etarli darajada yo'lga qo'yilmaganda va shu kabi hollarda sodir bo'ladi. Bu zahiralar ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar barham topgach tugaydi. Holbuki sermehnatlik darajasini kamaytirish zahirolari cheksiz hisoblanadi. Ish vaqtining bekor sarf bo'lishi hisobiga mehnat unumdorligining o'sish zahiralarini aniqlash maqsadida ish vaqtining haqiqiy balansini sinchiklab tahlil qilish uni rejalashtirilgan ish vaqti bilan taqqoslash, ish kunini sur'atga tushirish va bu ishni mustaqil ravishda amalga oshirish yordamida ish vaqtining bekor sarf etilishini aniqlash, ularning sabablarini belgilash va ularni kamaytirish yoki to'liq barham toptirish tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Mehnat unumdorligini oshirish zahiralaridan biri - kadrlar tarkibini takomillashtirishdir. Kadrlar tarkibi deganda sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining ayrim toifalari o'rtasidagi miqdor nisbati tushuniladi. Asosiy va yordamchi ishchilarning miqdor nisbati, shuningdek, ishchilarning barcha xodimlar sonidagi nisbati eng muhim. Kadrlar tarkibining ko'rsatkichlari: sanoat-ishlab chiqarish xodimlari umumiy sonida ishchilarning salmog'i va ishchilar va butun xodimlar umumiy sonidagi asosiy ishchilarning salmog'idir.

## II BOB. MEHNAT POTENTIALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI STATISTIKASI

### 2.1. Mehnat unumdorligini statistik o'rganishning nazariy asoslari

Mehnat unumdorligi darajasi qilingan mehnatdan olingan samarani (mahsulot yoki xizmat) baholab borishi lozim. Shuning uchun bu ko'rsatkichni hisoblashda sarf qilingan mehnat–T, natijaviy ko'rsatkich – Q lar nisbati olinadi.

Ishlab chiqarish natijalari ko'rsatkichlari sifatida mahsulotning natura shakli, shartli-natura shakli va qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Mahsulotning natura shaklidagi ko'rsatkichlari bir turli mahsulotning mehnat unumdorligi dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Ulardan mehnat unumdorligini mahsulotning eng muhim turlari bo'yicha tavsiflashda foydalaniladi:

$$w = \frac{q}{T}$$

Iste'mol qiymati bir xil bo'lgan, lekin ayrim parametrlari bilan farqlangan mahsulotlarni umumlashtirish maqsadida shartli natural mehnat unumdorligi darajasidan foydalaniladi:

$$w = \frac{\sum q_k}{\sum T}$$

Bu erda, k – shartli etalonga o'tkazish ko'rsatkichi.

Mahsulotning qiymat ko'rsatkichlari mehnat unumdorligining turli xil iste'mol qiymatlari bo'yicha umumlashgan tavsiflarni olish imkonini beradi:

$$w = \frac{\sum q^P}{\sum T}$$

Bu erda, P – baho.

Mehnat unumdorligining natura shakli, shartli-natura shakli va qiymat ko'rsatkichlari bilan birga unumdorlikning mehnat ko'rsatkichlari ham hisoblanadi. Ular ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarishning mehnat talabiga

asoslanadi va mahsulot birligini ishlab chiqarishda mehnat sarfining o'zgarishini aks ettiradi. Unumdorlikning mehnat ko'rsatkichlari bir turli mahsulotning bir yoki bir necha turlari bo'yicha aniqlanadi:

$$W = \frac{\sum_{qt}}{\sum T}$$

Bu erda,  $t$  - mehnat talabchanligi.

Ikkinchidan, yuqoridagi ko'rsatkichlarning bir-biriga nisbati  $\frac{T}{Q}$  tariqasida olinsa, chiqqan natija maxraj birligiga qancha surat ko'rsatkichi to'g'ri kelishini ifodalaydi yoki mehnat talabchanligi, ya'ni  $t = \frac{T}{Q}$  teskari ko'rsatkich hisoblanadi, chunki mehnat talabchanligi oshsa, mehnat unumdorligi pasayadi, ya'ni to'g'ri va teskari mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari orasida teskari bog'liqlik mavjuddir.

$$W = \frac{1}{t}, \quad t = \frac{1}{W}$$

G'arb statistikasida unumdorlik ko'rsatkichlarini hisoblash asosida keng tarqalgan "ishlab chiqarish omillari" kontsepsiyasi yotadi. Uning asoschisi J.B. Sey ta'kidlashicha, yollanma mehnat ekspluatatsiya qilinmaydi, chunki ishlab chiqarish jarayonida mehnat, kapital va er teng huquqlarda ishtirok etadi. Shuning uchun ishlab chiqarishning har xil omili ko'rsatgan xizmati uchun taqdirlanadi: xodim ish haqi bilan taqdirlanadi; kapital egasi foyda yoki foiz oladi; er egasi-renta oladi.

"Ishlab chiqarish omillari" nazariyasidan uning turli modifikatsiyalarida hozirgi kunda ham xalqaro statistikada foydalaniladi. Hozirgi kunda g'arbdagi turli iqtisodchilar fikricha, ishlab chiqarishda ko'p sonli omillar ishtirok etadi. Ular orasida ishchi kuchini ifodalaydigan (xodimlarning malaka darajasi, ishchi kuchining qo'nimsizligi, ish kunining davomiyligi), ishlab chiqarish fondlari (asosiy kapitalning holati, ishlab chiqarish quvvatlarining ish bilan ta'minlanganlik darajasi, energetika quvvatlaridan foydalanish), ishlab chiqarish jarayoni (mahsulot ishlab chiqarish, mahsulot assortimenti va navlari), ishlab chiqarishni tashkil etish (boshqaruvni tashkil etish, mehnat xavfsizligi texnikasi, moddiy-texnika

ta'minotini tashkil etish) va boshqa omillar bor. Ammo ko'pgina omillarni miqdoriy baholab bo'lmaydi.

Shuning uchun iqtisodiy tahlil maqsadlarida ko'pincha jonli mehnat, asosiy kapital (erni ham qo'shib), tadbirkorlik faoliyati (ishlab chiqarishni boshqarish), oraliq iste'mol (iste'mol qilingan mehnat predmetlarining qiymati) kabi omillardan foydalaniladi. G'arb iqtisodchilari "Iqtisodiyot omillari" nazariyasiga tayanib, mehnat unumdorligi kategoriyasiga ishlab chiqarish natijalarining ishlab chiqarish omillari sarflariga nisbati sifatida talqin beradilar. Ular nuqtai nazaridan, mehnat unumdorligi asosiy kapital unumdorligi, oraliq iste'mol unumdorligi va ishlab chiqarishning boshqa omillari bilan birga omillar umumiy unumdorligining xususiy ko'rsatkichi hisoblanadi.

Amaliy hisob-kitoblarda ko'pincha mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari qo'llaniladigan holatni g'arb iqtisodchilari jonli mehnat sarfini o'lchashning oddiyligi bilan izohlaydilar. Bundan tashqari, ular jonli mehnat iqtisodiyotining ko'pgina sohalarida qiymat yaratishning ustuvor omili bo'lganligi va hozir ham shunday ekanligini tan oladilar. Ammo ularning fikricha, iqtisodiyot rivojlanishi bilan ishlab chiqarishning boshqa omillari (kapital va tadbirkorlik faoliyati) roli ortib borishiga ko'ra, jonli mehnatning ahamiyati kamayib boradi.

Shunday qilib, g'arb iqtisodiyoti fani unumdorlik deganda o'z mazmuniga ko'ra, ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichiga yaqin ko'rsatkichni tushunadi. Tabiiyki, iqtisodiy samaradorlik darajasi va dinamikasi barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanishga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishning barcha omillari teng huquqlarda ishtirok etganliklari uchun ham taqdirlanishida teng huquqqa ega bo'ladi.

## **2.2. O'zbekistonda Unumdorlikning statistik ko'rsatkichlari tizimi va yil yakunlari**

O'zbekiston statistikasida unumdorlik ko'rsatkichlari tizimi yuqorida ko'rib chiqilgan ishlab chiqarish omillari nazariyasi asosida tashkil etiladi. Bu nazariyaga

ko'ra, mehnat unumdorligi unumdorlikning xususiy ko'rsatkichi sifatida qaraladi, chunki sarflangan jonli mehnat faqat ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida qaralib, texnik taraqqiyot rivojlanib borgan sari uning ahamiyati kamayib boradi.

Shunga ko'ra, iqtisodchilar fikricha, unumdorlik darajasini aniqlash uchun mahsulot hamda uni yaratishda ishtirok etadigan ishlab chiqarish omillarini statistik o'lchash lozim. Ma'lumki, ishlab chiqarilayotgan mahsulot natura, shartli-natura shaklida va qiymat ko'rsatkichlarida o'lchanishi mumkin. Agar unumdorlik darajasi va dinamikasini aniqlash maqsadida mahsulotning natura yoki shartli-natura shaklidagi ko'rsatkichlaridan foydalanilsa, unda ular faqat jonli mehnat sarfi bilangina taqqoslanadi. Natijada jonli mehnat sarfi birligiga natura yoki shartli-natura shaklida ifodalanadigan, an'anaviy statistikada keng qo'llaniladigan muvofiq keluvchi ko'rsatkichga aynan o'xshash mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichiga ega bo'linadi. Bu usul bo'yicha hisoblangan mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari iqtisodiyotning bir turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan tarmoqlaridagi mehnat unumdorligi darajasini tavsiflashda, shuningdek, bu darajalarni xalqaro qiyoslashda katta ahamiyatga egadir.

kiymat ifodasidagi unumdorlik ko'rsatkichlariga kelsak, holat boshqacha tus oladi. Bu holatda unumdorlik darajasi mahsulot ko'rsatkichi va uni ishlab chiqarish omillarini tanlashga bog'liq bo'lib qoladi. Mahsulot ko'rsatkichi sifatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish, yalpi pirovard mahsulot, sof mahsulot, yalpi qo'shilgan qiymat, sof qo'shilgan qiymatdan foydalanish mumkin.

Yalpi mahsulot ishlab chiqarish sotish narxidagi tovar mahsuloti qiymati, o'z ehtiyoji uchun ishlab chiqarilgan uskuna va xo'jalik usulidagi kapital qurilish, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarish va tugallanmagan qurilish, korxona omborlaridagi tayyor mahsulot va yarim tayyor mahsulotlarning o'sishini qamrab oladi.

Yalpi pirovard mahsulot korxona yoki tarmoqdan tashqari ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulot qiymatidir. O'z mazmuniga ko'ra, bu ko'rsatkich zavod yoki tarmoq usuli bo'yicha tovar mahsuloti ko'rsatkichiga muvofiq keladi. Sof

mahsulot barcha ishlab chiqarish omillari sarflarining (mehnat sarfidan tashqari) qiymati chegaralangan yalpi mahsulot qiymati sifatida aniqlanadi.

Xalqaro statistikada unumdorlikni hisob-kitob qilishda oraliq iste'mol qiymati chegaralangan yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichidan keng foydalaniladi. Yalpi qo'shilgan qiymat bilan asosiy kapitalni iste'mol qilish o'rtasidagi farqni ifodalaydigan sof qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi to'g'risida shuni aytish mumkinki, ayrim tarmoqda sof mahsulot bilan muvofiq bo'lsada, butun iqtisodiyot bo'yicha sof mahsulotdan noishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatadigan tarmoqlarda sof qo'shilgan qiymat summasi ortiq bo'ladi.

Unumdorlikni aniqlashda omillarni tanlash masalasi juda murakkab va xilma-xil. O'zbekiston statistikasida ishlab chiqarish omillari sifatida mehnat, doimiy kapital va joriy ishlab chiqarish iste'molidan ko'proq foydalaniladi. Qator holatlarda bu omillarga tadbirkorlik faoliyati ham kiradi.

Jonli mehnat eng muhim ishlab chiqarish omili hisoblanadi. Uni o'lchash maqsadida berilgan davrdagi xodimlarning o'rtacha soni yoki ishlangan vaqtdan foydalanish mumkin. Ishlangan vaqt mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Xodimlarning o'rtacha soni faqat mehnat unumdorligi dinamikasini emas, balki uning ish vaqti potentsial fondidan foydalanishga bog'liq tarzda o'zgarishini ham aks ettiradi. Ravshanki, ishlangan vaqt tushunchasi malaka, intensivlik, mehnat shart-sharoitlari va boshqalar turlicha bo'lganligi tufayli turli toifadagi xodimlar, iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun sifat jihatidan bir xil bo'lmaydi.

Mehnat sarfini aniqlashda ikki variantdan foydalaniladi:

- a) mazkur tarmoqdagi ishlangan vaqt chegaralanishigacha shu toifa xodimlari ish haqining bir saotlik stavkasi bo'yicha o'lchanadi;
- b) ishlangan vaqt, uning sifat jihatidan bir xil emasligiga e'tibor bermay jamlanadi.

Bunda yana bir muhim amaliy muammo – haqiqiy ishlangan vaqtni haq to'langan vaqtdan chegaralash muammosi yuzaga keladi. Uni hal qilishning

yagona yo'li muvofiq keluvchi tanlov tekshirishni o'tkazish va so'ngra uning natijalarini shu tarmoqning barcha korxonalariga joriy qilishdir.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat sarfi va yollanmagan xodimlar mehnat sarfini aniqlash yanada qiyin muammodir. Qishloq xo'jaligidagi ish kuchining davomiyligi tabiiy omillar, geografik zona va etishtirilayotgan ekinga bog'liq tarzda juda o'zgaruvchandir. Shuning uchun mehnat sarfini aniqlash maqsadida yaqinlashtirilgan ekspert baholashdan foydalaniladi.

Yollangan xodimlar mehnat sarfiga kelsak, u tadbirkorlar ( egalik qiluvchalar ) va uning bepul ishlaydigan oila a'zolari ishlagan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu sarflar hisob-kitob ish kuni yoki ish haftasining o'rtacha davomiyligini tanlab tekshirish ma'lumotlari bo'yicha yoki yollangan xodimlar turli toifalari ish kunining davomiyligini muvofiq qiluvchi toifadagi yollanma xodimlar ish kuni davomiyligiga shartli tenglashtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Unumdorlik darajasi va bu daraja dinamikasini butun mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha tavsiflashda faqat ish bilan band aholini emas, balki ishsizlarni ham nazarda tutish, ya'ni iqtisodiy faol aholi sonidan kelib chiqish mumkin. Ma'lumki, ishsizlik to'g'risidagi ma'lumotlarning ikkita manbai bor: rasmiy, aniq pasaytirilgan ma'lumotlar va kasaba uyushmalari ma'lumotlari. Ular o'z funktsiyalarini to'la bajarganda kasaba uyushmalari ma'lumotlaridan foydalanish lozim.

Iqtisodchilar unumdorlikning quyidagi ko'rsatkichlarini mahsulotning qiymat ko'rsatkichlari va ishlab chiqarish omillarini turlicha birlashtirib aniqlaydilar:

- mehnatning yalpi unumdorligi;
- mehnatning sof unumdorligi;
- mehnatning integral unumdorligi;
- omillarning global unumdorligi;
- omillarning total unumdorligi.

Mehnatning yalpi unumdorligi ko'rsatkichlari o'z mazmuniga ko'ra, xarajat birligiga mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichiga juda yaqin va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$YaMUqYaCh G' T$$

Bunda: YaMU - yalpi mehnat unumdorligi;

YaCh - yalpi ishlab chiqarish;

T - mehnat sarfi.

Bu ko'rsatkichni hisoblashda yalpi ishlab chiqarish tannarx, narxlar omili yoki bozor narxlari bo'yicha aniqlanadi. Mehnat sarflari ham quyidagilar sifatida ifodalanishi mumkin:

- a) yollanma xodimlar soni;
- b) barcha toifadagi bandlar soni;
- v) ishlagan kishi/soatlar soni;
- g) soliqlar chegirilishidan oldingi hisoblangan ish haqi summasi.

Bu ko'rsatkichning asosiy kamchiligi faqat jonli mehnatni hisobga olib, boshqa ishlab chiqarish omillari e'tiborga olinmasligidir.

Sof mehnat unumdorligi ko'rsatkichi sof mahsulot qiymatining mehnat sarflariga nisbatini ifodalaydi. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha sof mahsulot (sof qo'shilgan qiymat) tarmoqlararo mahsulot balansi asosida yalpi mahsulot ishlab chiqarish qiymatidan oraliq iste'mol qiymati va doimiy kapital iste'molini chegirish yo'li bilan aniqlanadi. Bu holatda mehnat sarfi ko'rsatkichlari yalpi mehnat unumdorligini aniqlash bilan bir xil bo'ladi.

Integral mehnat unumdorligining yalpi chiqaruv qiymati mehnat birliklarida ifodalangan mehnat sarflari va boshqa ishlab chiqarish omillariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Uning darajasi, dinamikasi jami va oldingi mehnat sarflariga bog'liq bo'ladi. Bu ko'rsatkich amaliyotda juda kam hollarda hisoblanadi, buning sababi doimiy kapital sarflari (amortizatsiya) va o'zgaruvchan kapital sarflari (qolgan boshqa moddiy sarflar)ni mehnat birliklarida qayta hisoblashdagi qiyinchiliklardir.

Iqtisodchilarning fikricha, omillarning global unumdorligi unumdorlikning eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. U unumdorlik darajasiga faqat jonli mehnat sarfinigina emas, balki boshqa omillar sarfining ta'sirini ham aks ettiradi. Shuning uchun mehnat unumdorligi omillarning global unumdorligi munosabatida unumdorlikning xususiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'riladi.

Omllarning global unumdorligi sof mehnat unumdorligi bilan bog'langan. Sof mehnat unumdorligini hisoblashda uning maxrajiga faqat jonli mehnat sarflari qo'shiladi. Boshqa ishlab chiqarish omillarining sarflari sof mahsulotni aniqlash uchun suratda yalpi chiqaruv qiymatidan chegiriladi. Omillarning global unumdorligini aniqlashda yalpi chiqaruvning to'la qiymati surat xizmatini o'taydi, maxrajida - boshqa ishlab chiqarish omillarining sarflari jonli mehnat sarflariga qo'shiladi.

Global unumdorlik omillarini aniqlashda mahsulot ko'rsatkichi sifatida chiqarilgan yalpi mahsulot qiymati yoki yalpi qo'shilgan qiymatdan foydalanish mumkin.

Xalqaro statistikada qo'llaniladigan unumdorlik ko'rsatkichlarini quyidagi jadvaldan ko'rgazmali tasavvur qilish mumkin.

## Xalqaro statistikada qo'llaniladigan unumdorlik ko'rsatkichlari

| № | Ko'rsatkichlar                                                   | Kasrda                                                     |                                                                 |
|---|------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
|   |                                                                  | Surat                                                      | Maxraj                                                          |
| 1 | Mehnat unumdorligining natura shaklidagi ko'rsatkichlari         | Mahsulotni natura shaklidagi birliklarida chiqarish        | Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birliklarida  |
| 2 | Mehnat unumdorligining shartli-natura shaklidagi ko'rsatkichlari | Mahsulotni shartli-natura shakli birliklarida chiqarish    | Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birliklarida  |
| 3 | Mehnat unumdorligining qiymat ko'rsatkichlari                    |                                                            |                                                                 |
| A | Yalpi mehnat unumdorligi                                         | Yalpi qo'shilgan qiymat, mahsulotni yalpi ishlab chiqarish | Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birliklarida  |
| V | Sof mehnat unumdorligi                                           | Sof qo'shilgan qiymat, sof mahsulot                        | Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birligida     |
| S | Integral mehnat sarflari                                         | Yalpi qo'shilgan qiymat, yalpi mahsulot chiqarish          | Ishlab chiqarishning vaqt birligida ifodalangan barcha omillari |
| D | Global mehnat unumdorligi                                        | Yalpi qo'shilgan qiymat, yalpi mahsulot chiqarish          | Ishlab chiqarishning pul ifodasidagi barcha omillari            |
| E | Total mehnat unumdorligi                                         | Sof qo'shilgan qiymat, sof mahsulot                        | Pul ifodasidagi mehnat va doimiy kapital                        |
| F | Mehnat sarfi birligiga haqiqiy daromadlar                        | Yalpi ichki mahsulot (sof mahsulot)                        | Vaqt birliklaridagi mehnat sarflari                             |

2011 yil yakunlari bo'yicha mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishi 8,3 foizni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'sishi 6,3 foizni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish hajmi o'sishi 6,6 foizni, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi o'sishi 16,1 foizni tashkil etdi. Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi. Inflyatsiya darajasi belgilangan prognoz ko'rsatkichdan oshmadi.

Mamlakatimiz eksport qiluvchi korxonalarining raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan ustunliklarini to'liq ro'yobga chiqarish, eksport tarkibini diversifikatsiyalash va mahsulotlarni sotishning yangi tashqi bozorlarini faol o'zlashtirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar olib borilishi 2011 yilda eksport hajmi 15,4 foizga o'sishini, tashqi savdo balansining sezilarli miqdordagi ijobiy saldosini va mamlakat oltin-valyuta zaxiralari o'sishini ta'minladi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun eng qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir keng ko'lamli ishlar olib borilishi 2011 yil yakunlari bo'yicha mamlakat yalpi ichki mahsulotida kichik biznes ulushi 2010 yildagi 52,5 foiz o'rniga 54 foizgacha ko'payishiga ko'maklashdi.

2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi parametrlarini so'zsiz bajarish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar qariyb 1 millionta ish o'rni tashkil etilishini ta'minladi, ularning 68 foizidan ortig'i qishloq joylarga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz Prezidenti o'z ma'ruzasida hal etilmagan mavjud muammolarni batafsil va har tomonlama tahlil qildi hamda 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari va yo'nalishlarini bajarishga qaratilgan dasturiy vazifalarga atroflicha to'xtalib o'tdi.

Xalqaro valyuta jamg'armasining keyingi baholash missiyasi bayonotida, jumladan, bunday deyiladi:

“O'zbekiston jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rdi. Keyingi besh yilda O'zbekistonda o'sish sur'atlari o'rtacha 8,5 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan yuqoridir.

Qator yillar davomida kuzatilgan byudjet profitsiti, rasmiy zaxiralar darajasining yuqoriligi, davlat qarzining kamligi, barqaror bank tizimi va xalqaro moliya bozorlaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning bevosita oqibatlaridan himoya qildi... Missiya 2011 yilda yalpi

ichki mahsulot 8,3 foiz ko'payishini kutmoqda va o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolishini bashorat qilmoqda".

Ta'kidlash joizki, o'tgan yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, kutilganidek, amalda 8,3 foizni tashkil etdi, 2000 — 2011 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi 2,1 barobar oshdi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi.

O'tgan yili sanoat ishlab chiqarishi 6,3 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish 6,6 foiz, chakana savdo aylanmasi 16,4 foiz va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish 16,1 foizga barqaror yuqori sur'atlar bilan o'sdi.

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlarini birgina misolda, ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo'g'i 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 24,1 foizga etganida yaqqol ko'rish mumkin.

Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi. Bugungi kunda iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan mashinasozlik va avtomobilsozlik (12,2 foiz), kimyo va neft-kimyo sanoati (9,4 foiz), oziq-ovqat sanoati (13,1 foiz), qurilish materiallari sanoati (11,9 foiz), farmatsevtika va mebelsozlik (18 foiz) 2011 yilda jadal sur'atlar bilan rivojlandi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2011 yilda 11,2 foizga o'sdi, 2000 yilga nisbatan esa bu ko'rsatkich 4 barobardan ziyod oshdi.

Ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarni diversifikatsiya qilishga qaratilayotgan ulkan e'tibor eksport hajmi, uning tarkibi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2011 yilda eksport mahsulotlari hajmi 2010 yilga nisbatan qariyb 15,4 foizga ko'paydi va 15 milliard dollardan ko'proqni tashkil etdi. Bu 2000 yilga nisbatan 4,6 barobar ziyoddir. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 4

milliard 500 million dollardan oshdi. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi, holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich qariyb 46 foizni tashkil etgan edi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005 yildan boshlab Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turibdi.

2011 yilda Davlat byudjetining xarajatlar qismi 2010 yilga nisbatan 25,4 foizga, 2000 yilga nisbatan esa qariyb 17,8 barobar o'sdi. Qayd etish joizki, Davlat byudjeti xarajatlarining 58,7 foizi ijtimoiy sohani moliyalash va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Mana bu raqamlarga alohida e'tiboringizni jalb etmoqchiman. 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizning umumiy tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 17,5 foizidan, eksport hajmiga nisbatan esa 53,7 foizdan oshmaydi. Bu xalqaro mezonlar bo'yicha "Har jihatdan maqbul holat", deb hisoblanadi.

Bularning barchasi mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab ham davlat, ham tijorat banklari, kompaniya va korxonalar miqyosida har tomonlama puxta o'ylangan chetdan qarz olish siyosatini amalga oshirib kelayotganimiz bilan bog'liq ekanini, o'ylaymanki, tushunish, anglash qiyin emas.

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish va servis sohasi 2011 yilda jadal sur'atlar bilan rivojlanib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yildagi 37 foiz o'rniga 50,5 foizni tashkil etdi.

## **2.3 Mehnat unumdorligi dinamikasi**

Mehnat unumdorligi dinamikasi indekslar yordamida o'rganiladi. Indekslar individual va umumiy bo'lib o'rganiladi. Bir turdagi mahsulot ishlab chiqarilganda individual mehnat unumdorligi indekslaridan foydalaniladi:

$$i_w = \frac{W_1}{W_0} = \frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0}$$

Bunda:  $W_1$  va  $W_0$  - mehnat unumdorligi bazis va joriy darajalari.

Bu mehnat unumdorligini to'g'ri ko'rsatkichi yordamida tuzilgan indeks hisobot davrida bazis davrga qaraganda qay darajada mehnat unumdorligi o'zgarishini ko'rsatib beradi.

Bu indeksni teskari ko'rsatkich yordamida mehnat talabi bo'yicha ham tuzish mumkin, lekin shuni inobatga olish kerakki, mehnat talabi  $t$ , to'g'ri ko'rsatkichi vaqt birligida ishlab chiqarish  $W$  ko'rsatkichi bilan teskari bog'liqlikda bo'lganligi sababli, bu indeks ham teskari tuziladi, ya'ni:

$$i_w = \frac{t_0}{t_1} = \frac{T_0}{q_0} : \frac{T_1}{q_1}$$

bu ko'rsatkichning to'g'ri nisbatini ham olish mumkin  $\frac{t_1}{t_0}$ , lekin bu holda chiqqan natija qay darajada mehnat talabi o'zgarganligini aks ettiradi, ya'ni:

$$i_t = \frac{t_1}{t_0} = \frac{T_1}{q_1} : \frac{T_0}{q_0}$$

Demak, bu indekslar orasida ham teskari bog'liqlik mavjud.

$$i_w = \frac{1}{i_t}$$

Bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar, birlashma bo'yicha umumiy mehnat unumdorligi natural indeksi hisoblanadi:

$$I_{\overline{W}} = \frac{\overline{W}_1}{\overline{W}_0} = \frac{\sum q_1}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0}{\sum T_0}$$

Bu erda hisobot davridagi mehnat unumdorligining o'rtacha darajasi bazis davridagi mehnat unumdorligining o'rtacha darajasi bilan qiyoslanadi.

Bir turdagi iste'mol qiymatiga ega bo'lgan, lekin ayrim parametrlar bilan farqlanadigan mahsulot ishlab chiqarish korxonalari bo'yicha mehnat unumdorligi dinamikasi o'zgarishi shartli-natura indeksi yordamida o'rganiladi:

$$\bar{I}_w = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0} = \frac{\sum q_1^k}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0^k}{\sum T_0}$$

Natura va shartli natura-shakldagi indekslarning afzalligi shundaki, ular eng avval jonli mehnat unumdorligi dinamikasini ifodalaydi. Bundan tashqari, mahsulotni o'lchashning natura va shartli natura-shakldagi indekslarining o'tgan asr 50-yillari birliklarini qo'llash, bu indekslarni hisoblash va bir xil mahsulot turlari bo'yicha belgilangan turli korxona, mintaqa va mamlakatdagi mehnat unumdorligi darajasini qiyoslash jarayonlarini soddalashtiradi. Shu bilan birga, mahsulotning natura va shartli-natura shaklidagi ko'rsatkichlaridan foydalanish mehnat unumdorligining natura va shartli-natura shaklidagi indekslarni qo'llash sohasini jiddiy cheklaydi; ular orasida alohida korxonalarda, iqtisodiyot tarmoqlarida va butun mamlakat iqtisodiyotida unumdorlik dinamikasini o'rganish deyarli mumkin emas:

$$i_w = \frac{t_0}{t_1} = \frac{T_0}{q_0} : \frac{T_1}{q_1}$$

Yuqorida ko'rilgan indekslar o'zgaruvchan tarkibli indekslardir, chunki bu indekslarga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

1. Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishi (W).
2. Sarf qilingan ish vaqti salmog'ining o'zgarishi ( $\frac{T}{\sum T}$ )

o'zgaruvchan tarkibli mehnat unumdorligi o'zgarganligini ifodalaydi.

Bu o'zgarishning har bir omili ta'sirini alohida o'rganish maqsadida indekslar quyidagilarga bo'linadi:

Doimiy tarkibli mehnat unumdorligi indeksi (Strumilin usuli):

$$\bar{I}_w = \frac{\sum i_w T_1}{\sum T_1} = \frac{\sum (\frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0}) T_1}{\sum T_1}$$

Bu indeks faqat mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishini aks ettiradi.

Ikkinchi omil, ya'ni sarf qilingan ish vaqti salmog'i o'zgarishi natijasida qay darajada mehnat unumdorligi o'zgarganligini aks ettiradi:

$$I_w(dT) = \bar{I}_w : \bar{I}_w$$

Masala:

Ikki brigada bo'yicha terilgan paxta va terimchilar haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

3-jadval

Brigadalar bo'yicha terilgan paxta va terimchilar haqida ma'lumotlar

|            | Sentyabr           |                                  | Oktyabr            |                                  |
|------------|--------------------|----------------------------------|--------------------|----------------------------------|
| Brigadalar | Terilgan paxta, kg | O'rtacha terimchilar soni, kishi | Terilgan paxta, kg | O'rtacha terimchilar soni, kishi |
| i          | $q_0$              | $T_0$                            | $q_1$              | $T_1$                            |
| 1          | 75000              | 50                               | 82000              | 62                               |
| 2          | 100000             | 60                               | 130000             | 78                               |

Birinchi brigada bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi:

$$i_w = \frac{W_1}{W_0} = \frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0} = \frac{82000}{62} : \frac{75000}{50} = \frac{1323}{1500} = 0,882 \cdot 100 = 88,2\%,$$

mehnati unumdorligi 11,8% ga kamaygan.

Ikkinchi brigada bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi:

$$i_w = \frac{W_1}{W_0} = \frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0} = \frac{130000}{78} : \frac{100000}{60} = \frac{1667}{1667} = 1 \cdot 100 = 100\%$$

ya'ni, mehnat unumdorligi o'zgarmas.

Ikkala brigada bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi:

$$I_{\bar{w}} = \frac{\sum q_1}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0}{\sum T_0} = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0} = \frac{82000+130000}{62+78} : \frac{75000+10000}{50+60} = \frac{212000}{140} : \frac{175000}{110} = 1514,3 : 1590,9 = 0,9518 \cdot 100 = 95,18\%$$

ya'ni, 4,92%ga kamaydi.

Bunday o'zgarishga qanday omil qay darajada ta'sir etganligini o'rganish maqsadida quyidagi hosildor indekslarni hisoblaymiz.

Doimiy tarkibli indeks:

$$\bar{I}_w = \frac{\sum i_w T_1}{\sum T_1} = \frac{0,882 \cdot 62 + 1 \cdot 78}{62 + 78} = \frac{54,7 + 78}{140} = \frac{132,7}{140} = 0,948 \cdot 100 = 94,8\%;$$

faqat o'rtacha mehnat unumdorligi o'zgarishi natijasida umumiy mehnat unumdorligi 5,2 foizga kamaygan.

Tarkibi siljish indeksi:

$$I_{w(d)} = \frac{I_{\bar{w}}}{\bar{I}_w} = \frac{0,9818}{0,948} = 1,036 \cdot 100 = 103,6\%$$

Ikkinchi brigadada mehnat unumdorligi yuqoriroq bo'lgan, sarf qilingan ish vaqti salmog'i oktyabr oyida sentyabrdagiga nisbatan (55,7 . 54,5) 1,2 punktga oshganligi umumiy mehnat unumdorligining qo'shimcha 3,6% oshishiga sabab bo'lgan.

Turli xil iste'mol qiymati ishlab chiqarilganda yoki iste'mol qiymatlar va xizmatlar bo'yicha umumiy mehnat unumdorligi dinamikasini o'rganish maqsadida, qiymat mehnat unumdorligi indeksidan foydalaniladi:

$$I_{\bar{w}} = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0} = \frac{\sum q_1 p}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0 p}{\sum T_0}$$

Bu erda, R - o'zgarmas baho.

O'zgarmas baho turli xil iste'mol qiymatlarini umumlashtirish maqsadida «soizmeritel» tariqasida foydalaniladi:

Shunday «soizmeritel» tariqasida  $t_n$  – me'yor (norma) bo'yicha mehnat talabchanligidan ham foydalanish mumkin.

$$I_{\bar{W}} = \frac{\sum q_1 t_H}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0 t_H}{\sum T_0} = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0}$$

Bu indeksga ishlatilgan xomashyo qiymati t'sir ko'rsatmaydi. Vaqt birligida turli xil me'yor soatda ishlab chiqarish bilan farqlanadi:

$$\bar{W} = \frac{\sum q t_H}{\sum T}$$

Bu indeks mehnatni normallashtirish yaxshi tashkil etilgan ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bunda o'zgaruvchan va doimiy tarkibli mehnat unumdorligining indeksleri qiymati, qo'shilgan qiymat bo'yicha ham, sof mahsulot bo'yicha ham aniqlanishi mumkin. Ko'pincha natural, qo'shimcha qiymat mehnat unumdorligi indeksidan korxona yoki firma darajasidagi mehnat unumdorligini tavsiflash, ya'ni qo'shilgan qiymat yoki sof mahsulotdan ayrim tarmoqlar yoki butun iqtisodiyot darajasidagi mehnat unumdorligini tavsiflashda foydalaniladi.

Hozirgi kunda mehnat unumdorligi darajasi, dinamikasini tarmoqlar va butun iqtisodiyot bo'yicha tavsiflashda milliy hisoblar tizimi ma'lumotlaridan keng foydalaniladi. Global yoki total unumdorlik omillari indekslarini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar, ya'ni sof ichki mahsulot, mehnat sarfi, oraliq iste'mol, asosiy kapital iste'moli va boshqa omillar sarfining dinamik qatorlarini joriy qoida qiyoslanadigan narxlarda oldindan tuzish tavsiya etiladi. Bunda sof ichki mahsulot omillari qiymati bo'yicha baholanadi.

Aytish lozimki, bazis davri uchun omillarning global unumdorligi birga teng, chunki mahsulotning narxlar omili bo'yicha qiymati omillar sarflari yig'indisiga teng. Boshqa davrlar unumdorligining darajalari qiyoslanadigan narxlar omilidagi mahsulot qiymatini omillarning qiyoslanadigan narxlardagi sarflariga bo'lishdan olinadigan natija sifatida aniqlanadi. Bu indekslarni hisoblashni soddalashtirish va har bir omilning yaqqol ta'sirini ko'rish maqsadida yuqoridagi indekslarga o'zgartirish kiritiladi:

1. O'zgaruvchan tarkibli mehnat unumdorligi indeksi:

$$I_{\bar{W}} = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0} = \frac{\sum q_1}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0}{\sum T_0} = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum T_1} : \frac{\sum W_0 T_0}{\sum T_0} = \frac{\sum W_1 d_{T_1}}{\sum d_{T_1}} : \frac{\sum W_0 d_{T_0}}{\sum d_{T_0}} = \frac{\sum W_1 d_{T_1}}{\sum W_0 d_{T_0}}$$

Bu o'zgaruvchilar  $W = \frac{q}{T}$ . Bundan,  $q = W T$ .

Shundan kelib chiqadiki,

$$\overline{W}_0 = \frac{\sum W_0 T_0}{\sum T_0} \quad \overline{W}_1 = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum T_1}, \text{ bu o'rtacha tortilgan arifmetik usul.}$$

O'rtachaning ayrim matematik xususiyatlaridan biri shundan iboratki, agar «soizmeritel» qandaydir bir xil doimiy songa ko'paytirilib yoki bo'linsa o'rtacha miqdor o'zgarmaydi.

Shuning uchun T-uning salmog'i tenglashtirilib olinadi.

Bu erda, birinchi omil ( $W_0$  va  $W_1$ );

ikkinchi omil ( $d_{T_0}$  va  $d_{T_1}$ ).

Birinchi omil ta'sirini o'rganish uchun ikkinchi omil o'zgarmas tarkibda olinadi. Doimiy tarkibli indeks:

$$I_W = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum T_1} : \frac{\sum W_0 T_0}{\sum T_0} = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum W T_1} = \frac{\sum W_1 d_{T_1}}{\sum W_0 d_{T_0}}$$

Ikkinchi omilning ta'sirini o'rganish uchun birinchi omil o'zgarmas holda olinadi. Tarkibiy siljish indeksi:

$$I_{W(dT)} = \frac{\sum W_0 T_1}{\sum T_1} : \frac{\sum W_0 T_0}{\sum T_0} = \frac{\sum W_0 d_{T_1}}{\sum d_{T_1}} : \frac{\sum W_0 d_{T_0}}{\sum d_{T_0}} = \frac{\sum W_0 d_{T_1}}{\sum W_0 d_{T_0}}$$

Doimiy tarkibli va tarkibi siljish indeksleri o'zgaruvchan tarkibli indeksni hosilalari bo'lganligi uchun, ular orasida quyidagi bog'liqlik mavjud:

$$I_{W(dT)} = I_W \cdot I_{T(dT)}$$

Yuqorida ko'rib chiqilgan turli xil usulda hisoblangan doimiy tarkibli indekslar natijalari turli xil bo'ladi:

$$\bar{I}_W = \frac{\sum i_w T_1}{\sum T_1} = \frac{\sum \frac{t_0}{t_1}}{\sum t_1 q_1} = \frac{\sum t_0 q_1}{\sum t_1 q_1} = \frac{\sum t_0 dq_1}{\sum t_1 dq_1}$$

$$\bar{I}_W = \frac{\sum W_1 d_{T_1}}{\sum W_0 d_{T_0}}$$

Bu ikkala usulda hisoblangan indekslarga indekslashtirilayotgan ko'rsatkich turli xil o'zgarmas «soizmeritel»da olingan.

Birinchi indeksga o'zgarmas mahsulot salmog'i ( $dq$ );

ikkinchi indeksga o'zgarmas sarf qilingan vaqt salmog'i ( $dT$ ).

Tarkibiy siljish indeksleri ham shu ikki usulda yuqorida ko'rilgan sababga ko'ra turlicha bo'ladi. Har xil sarf birliklariga nisbatan hisoblangan mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik. Mehnat sarfi birligi kishi/soat, kishi/kun, kishi/oy va kishi/yil demakdir. Demak, mehnat unumdorligi darajasi: o'rtacha soatlik, o'rtacha kunlik, o'rtacha oylik, o'rtacha yillik va hokazo bo'lishi mumkin.

### **Xulosa va takliflar**

Kurs ishimdan olgan hulosalarim shuki: mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari tizimining tuzilishi ulardan har birining funktsional vazifasini aniqlashga asoslanish lozim. Ko'rsatkichlarni tasniflashni mezon - mehnat natijalarini ifodalash usulidir.

Mehnat unumdorligini aniqlash vazifasi, uning tizimini yaratish, o'rganish muhim yo'nalish hisoblanadi. Mehnat unumdorligini o'lchash usullari ko'p omilli, vektorli va mezonli sifatida tasniflanadi.

Mehnat unumdorligi rivojlanib boruvchi ko'rsatkich bo'lganligi sababli omillar va zahiralarini o'rganish dolzarb muammoga aylandi. Mehnat unumdorligini oshirish zahiralar tizimini yaratish eng muhim yo'nalishdir.

Mehnat unumdorligi darajasi ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi, u to'g'ri va teskari ko'rsatkichlar yordamida baholanadi. To'g'ri mehnat unumdorligi ko'rsatkichi – vaqt birligida ishlab chiqargan mahsulot miqdorini ifodalaydi. Teskari mehnat unumdorligi ko'rsatkichi, mehnat talabchanligi – mahsulot birligiga sarf etilgan ish vaqti birligini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar orasida teskari bog'liqlik mavjud.

Mehnat unumdorligi darajasini o'rganish muammosi, iqtisodchi-statistiklar orasida diskussiya hisoblanib, juda ko'p fikr va mulohazalar bildirilmoqda. G'arb statistikasida unumdorlik ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqarish nazariyasi asosida tashkil etiladi va bu nazariyaga ko'ra mehnat unumdorligi, unumdorlikning xususiy ko'rsatkichi sifatida qaraladi, chunki sarflangan jonli mehnat, faqat ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida qaralib, texnik taraqqiyot etishi sari uning ahamiyati kamayib boradi va shuning uchun mahsulot yaratishda ishtirok etadigan ishlab chiqarish omillarini ham hisobga olish lozim.

Xalqaro statistikada unumdorlik hisob-kitobida, mahsulot ko'rsatkichi sifatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish, pirovard mahsulot, sof mahsulot, yalpi qo'shilgan qiymat, sof qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkinligi ko'riladi. Mehnat unumdorligi dinamikasi indeks usuli yordamida o'rganilib, bu usul nafaqat mehnat unumdorligi o'zgarishini ko'rsatib, balki turli xil omillar ta'sirini ham aks ettiradi. Mehnat unumdorligi bozor sharoitida natijaviy ko'rsatkichni oshirishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

### **Takliflar:**

O'zbekistonda mehnat unumdorligini oshirish uchun quydagi ishlarni amalgam oshirish kerak: manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, kompaniya va korxonalar ishtirokida sanoatda mahsulot tannarxini 10-15 foizga pasaytirish yuzasidan har bir sanoat korxonasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutadigan dastur ishlab chiqish lozim.

Mamlakatimiz korxonalarida qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash darajasini tanqidiy tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha mavjud resurs va imkoniyatlarni aniqlash hamda sanoatning qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari turlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, buning uchun qo'shimcha imtiyozlarni ko'zda tutadigan maxsus qaror qabul qilish kerak.

Bu borada, birinchi navbatda, mahalliy xom ashyo va materiallar asosida sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish tizimini yanada rivojlantirishga oid ishlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratish darkor.

Bugungi keskin raqobat sharoitida mahsulotlarimizning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo'lishi va mustahkam o'rin egallashi uchun bu boradagi ishlarni yana bir bor tanqidiy ko'rib chiqish lozim. Bunda tashqi bozorda xaridorbop, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, ularga yangi imtiyoz va preferentsiyalar berish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar tayyorlash zarur.

Mamlakatimizdagi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari va boshqa tarmoqlarning eksport yarmakalari o'tkazishini kengaytirish, shuningdek, mahsulot sotishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, asosiy ishlab chiqaruvchilarimizni o'z mahsulotlari taqdimotini o'tkazish va yangi eksport shartnomalari tuzishi uchun nufuzli xalqaro yarmakalarga jalb etish bo'yicha alohida Hukumat qarorini qabul qilish lozim.

Mamlakatimizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni ko'paytirish va ularni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash zarur.

Hozirgi kunda yurtimizda mehnat unumdorligini va samaradorligini oshirish uchun ko'pgina g'oyalar va takliflar yuritilayapdi. Uning natijasi o'laroq yurtimizda Yalpi ichki mahsulot o'tgan yilga nisbatan 8.3% ga oshdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik (nazariya va amaliyot) –T.: “Mehnat”, 2004. -672b.
  2. Abduraxmanov K.X. va boshqalar. ««Mehnat iqtisodi va sotsiologiyasi»» Darslik. -T.: O'qituvchi, 2001.
  3. Korotnev V.D., Vinnichuk L.B., Kochetova G.N. i dr. Organizatsiya i upravlenie proizvodstvom: Uchebnoe posobie dlya vuzov Izdatelstvo: M: Kolos S, 2005. - 464s.
  4. Smit D. Bo't luchshim organizatorom svoego vremeni. -M:LORI, 2004. - 122s. \*
  5. Fedorova N.V., Minchenkova O.Yu. Upravlenie personalom organizatsii. Izdatelstvo: M: KnoRus, 2005. -416s.
  6. Shapiro S.A. Upravlenie chelovecheskimi resursami: Spravochnik. Izdatelstvo: M: GrossMedia, 2005. -304s.
  7. Shepelenko S.G. Organizatsiya, normirovanie i oplata truda na predpriyatii. Uchebnoe posobie. Izdatelstvo: Mart, 2004. -160s.
  8. Shlender P.E. Ro'nok truda: Uchebnoe posobie dlya vuzov Izdatelstvo: M: Vuzovskiy uchebnik G'VZFEI, 2004. -208s.
  9. Ekonomika i sotsiologiya truda: Ekz. otv. st. vuza. G'Barbarova E. -M.: Buklayn, 2005.-40s.
  10. Экономика труда: (социально-трудовые отношения): Уч. /Под ред. Волгина Н.А. -М.:Экзамен, 2004.-736с.
  11. Yu. G. Odegov Upravlenie personalom v strukturno-logicheskix sxemax, ISBN: 5-8291-0536-5. 2005.
  12. Yakovenko E. Ekonomika truda. Professionalno'y uchebnik Izdatelstvo: Yuniti-Dana, 2004. -319s.
  13. Yakovlev R. A. Oplata truda na predpriyatii. Izdatelstvo: Tsentr ekonomiki i marketinga (TsEM), 2004.
  14. Yakovlev R.A. Oplata truda v organizatsii. Izd. 2-e, pererab., dop. Izdatelstvo: M: MTsFER, 2005. -528s.
-

## Internet veb-saytlari

1. *http:G'G'[www.economyfaculty.uz](http://www.economyfaculty.uz)* – “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiyaologiyasi” kafedrasi sayti mavjud bo’lgan veb-sayt
2. *http:G'G'[economics.com.ua](http://economics.com.ua)* – mehnat iqtisodiyotiga taalluqli bo’lgan ma’lumotlar veb-sayti
3. *http:G'G'[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)* – “O’zbekiston iqtisodiyoti” qo’llanmasining veb-sayti
4. *http:G'G'[goldenpages.uz](http://goldenpages.uz)* – iqtisodiyotning eng so’nggi yangiliklari